Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24319132

materiallar to'plami

Bank iqtisodiyotini raqamlashtirish

Abdumajidova Mohichehra Baxtiyorjon qizi, Andijon Mashinasozlik Instituti

"Axborot tizimlari va texnologiyalari", yo'nalishi talabasi

Qo'ldashev Erkinjon, "Axborot tizimlari va texnologiyalari"

Kafedrasi dotsent i.f.n.

Mening ushbu maqolamda raqamlashtirish haqida atroflicha tushuncha berib, raqamlashtirishning axborot texnalogiyalariga tatbiq etilishi, bank iqtisodiyoti va bank iqtisodiyotini raqamlashtirish bo'yicha ma'lumotlar berilgan. Bank operatsiyalarini avtomatlashtirish va raqamlashtirish qay tartibda amalga oshirilishiyoritilib, o'zbekistonda bank iqtisodiyotini raqamlashtirishni hozirgi holati haqida tushuncha berilgan.

Kalit so'zlar: Raqamlashtirish, bank iqtisodiyoti, bank iqtisodiyotini raqamlashtirish raqamli iqtisodiyot, raqamli texnalogiyalar

«Raqamlashtirish» so'zi aslida yangi atama bo'lib, innovatsion boshqaruv va ish yuritish jarayoniga IT echimlarning jalb etilishini, buning samarasi o'laroq esa internet buyumlardan tortib, elektron hukumatgacha bo'lgan barcha tizimlarda axborot texnologiyalarini qo'llashni ko'zda tutadi.



Raqamli iqtisodiyot tushunchasi nisbatan uzoq bo'lmagan vaqtda, 1995-yili Massachusets universiteti amerikalik olimi Nikolas Negroponte tomonidan aniqlab berilgan. Olim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini intensiv rivojlanishi ortidan eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o'tishda, qanday o'zgarishlar ro'y berishi mumkinligini aytib o'tgan.

Raqamli iqtisodiyot - bu xo'jalik faoliyatini yuritish bo'lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinshidagi ma'lumotlar bo'lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini analiz qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni etkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq echimlar tadbiq qilishdir. Boshqacha qilib aytgancha, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron to'lovlar amalga oshirish, internet savdo, kraudfanding

Published: 10.11.2023

Cite this article: Abdumajidova Mohichehra Baxtiyorjon qizi, Qo'ldashev Erkinjon (2023). Bank iqtisodiyotini raqamlashtirish. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319132

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir. Asosan raqamli iqtisodiyotni rivojlanishining asosiy elementi sifatida elektron tijorat, internet banking, elektron to‘lovlari, internet reklama va shu bilan birga, internet o'yinlari ko'riladi.

Raqamlashtirishning rivojlangan davlatlarda foydalanish darajasi**.**

"Raqamli" davlatlar bugungi kunda Norvegiya, Shvetsiya va Shvetsariya hisoblanishadi. Raqamli iqtisodiyot rivojlangan 10 ta davlatlar qatoriga AQSH, Buyuk Britaniya, Daniya, Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya va Gonkong kiradi.

Dunyo tajribasini o'rganish natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotda davlat(hukumat) bozor "o'yin" qoidalarini o'yinning barcha ishtirokchilari uchun belgilaydi va bunda davlatning eng muhim vazifasi sifatida o'yin ishtirokchilari uchun bir xil, teng huquqli va imkoniyatli sharoit yaratib berish hisoblanadi. Ya'ni, bozorda katta kompaniya bo'ladimi yoki kichik biznes, ular teng huquqli hisoblanadi. Ularga bir xil imkoniyatlar beriladi. Davlat qoidalarga amal qilinishi va oxir oqibatda oddiy iste'molchi sifatli, zamonaviy xizmat yoki mahsulot olishi ta'minlanadi. Demak, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi uchun davlat hamma uchun teng sharoit yaratib berishi, iloji boricha bozor qoidalari, qonunlar, shartnomalar shaffof bo'lishi, qonunlar bozor talabidan kelib chiqqan holda(ya'ni bozordagi rivojlanish tendensiyalarini oldindan aniqlay olishi va kerakli normativ hujjatlarni qabul qilishi) o'yin ishtirokchilari uchun erkinlik berishi zarur.

Bank operatsiyalarini avtomatlashtirish va raqamlashtirish.

O‘zbekistonda bank iqtisodiyotini raqamlashtirishni hozirgi holati.

Bugungi kunda har bir davlat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni o‘zining ustuvor yo‘nalishi deb biladi. Davlat dasturlari yordamida raqamlashtirish, xavfsizlikni ta’minlash va huquqiy tartibga solish, mamlakatimizda raqamli savodxonlik darajasi tahlil qilinib rivojlanmoqda. O‘zbekiston ham raqamli iqtisodiyot sohasini rivojlantirishda jarayonga moslashish sur’atini oshirmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti 2020-yil 28-aprelda “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4699-sonli qarorni imzoladi[1]. 2023-yilga kelib O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi raqamli iqtisodiyot ulushini 2 barobar, elektron davlat xizmatlari sonini esa 376 taga etkazish rejalashtirilgan (hozirda yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP) orqali 326 ta davlat xizmatlarini ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan).

Qarorda 2023-yilga borib ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 barobarga oshirish va ularning eksportini 100 million dollarga etkazish orqali raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish ham ko‘zda tutilgan. Shuningdek, 2022-yilda barcha hududlarda raqamli savodxonlik o‘qitish markazlari ochilishi ham e’tiborga molik hisoblanadi.

Bundan tashqari, Prezidentimizning 2020-yil 5-oktabrdagi 6079-sonli Farmoni bilan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” milliy strategiyasi tasdiqlanib, 2030-yilda raqamli iqtisodiyotning YAIM dagi ulushi 30 foizni tashkil etishi va unda raqamlashtirishni rivojlantirish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar hududlar kesimida yanada batafsil yoritilgan[2].

materiallar to‘plami

2019 yilda chop etilgan UNCTADning raqamli iqtisodiyot hisobotiga ko‘ra, 7 ta raqamli kompaniya (Microsoft, Apple, Amazon, Google, Facebook, Alibaba va Tencent) jami global bozor kapitallashuvining 3/2 qismini tashkil qildi. Global axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning qariyb 40 foizi AQSh va Xitoy hissasiga to‘g‘ri keladi[3]. 2021-yil holatiga ko‘ra raqamli iqtisodiyotning O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 1,6 foizni, AQShda 9,3 foizni, Xitoyda 3,8 foizni, Hindistonda 8 foizni tashkil etdi.

2025 yilga borib dunyoning raqamli iqtisodiyoti 23 trillion AQSh dollarga etadi.. Uning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi hozirgi 17,1 foizdan 24,3 foizgacha oshadi. Kommunal, sanoat va qishloq xo‘jaligi, transport, moliya va boshqa sohalarda raqamli transformatsiyani rag‘batlantirish uchun dunyo bo‘ylab 100 milliard ulanish o‘rnatiladi. Bulutli texnologiyalardan foydalanadigan korxonalar soni 85%, sun’iy intellekt – 86%, raqamli katta ma’lumotlar – 80 foizni tashkil etadi.

Axborot texnologiyalari platformalarida faoliyat yurituvchi raqamli iqtisodiyot jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda, bu esa bunday platformalar uchun yangi model va texnologiyalarni yaratishni taqozo etmoqda. Bular raqamli iqtisodiyotning o‘tkazuvchan (murakkab) texnologiyalari:

1. Big Data texnologiyalari;
2. Internet ashyo texnologiyalari (IoT – Internet of Things);
3. Mobil texnologiyalar;
4. Bulutli texnologiyalar (Cloud computing);
5. Virtual va to‘ldirilgan texnologiyalar (VR – virtual reality) (AR – augmental reality);
6. Neyrotexnologiyalar va sun’iy intellekt (SI);
7. Raqamli platformalar;
8. Kvant texnologiyalar;
9. Robototexnika;
10. Blokcheyn va kriptovalyuta texnologiyalari;
11. Kraudsorsing va kraudfanding.

Bank iqtisodiyotini raqamlashtirishda foydalaniladigan texnalogiyalar.

Bank iqtisodiyotini raqamlashtirishda foydalaniladigan texnologiyalar o'zgarayotgan va rivojlanayotgan sohalar hisoblanadi. Quyidagi texnologiyalar bu jarayonda muhim ahamiyatga ega:

Maliyotiy resurslar boshqarish tizimlari: Bu texnologiyalar, bankning moliyaviy hisob-kitoblarni avtomatlashtirish, ma'lumotlarni to'plash va hisob-kitoblarni tuzish jarayonlarini osonlashtirishga yordam beradi. Muhim tizimlardan biri, Moliyaviy Boshqaruv Tizimi (Financial Management System) deb nomlanadi. Bu tizimlar, hisob-kitoblarni to'liq va to'g'ri tashkil etish, ma'lumotlarni to'plash, hisob-kitoblarni baholash va tahlil qilish, daromadni monitoring qilish va xarajatlarni boshqarishga yordam beradi.

Moliyalashtirish va tahlil tizimlari: Bu tizimlar, bankning moliyaviy natijalarni tahlil qilish, moliyalashtirish va maqsadga muvofiqlashtirishda yordam beradi. Bu texnologiyalar hisob-kitoblarni avtomatlashtirish, moliyalashtirish modelini yaratish,

daromad va xarajatlarni monitoring qilish, riskni boshqarish, hisob-kitoblarni simulyatsiyalash va moliyaviy ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish imkoniyatlarini ta'minlayadi.

Ma'lumot analitikasi va ishlab chiqarish tizimlari: Bu texnologiyalar, banklar tomonidan to'plangan ma'lumotlardan tahlillar va istatistik analizlar yaratishda foydalaniladi. Bu tizimlar, hisob-kitob ma'lumotlarini, kredit ma'lumotlarini, mijozlarning omonatliligini, korrupsiya holatlarini va boshqalar kabi moliyaviy ko'rsatkichlarni o'rganish, tahlil qilish va baholash imkonini beradi.

Elektron moliyalashtirish va to'lov tizimlari: Bu tizimlar, bankning moliyalashtirish jarayonlarini avtomatlashtirishga yordam beradi. Elektron moliyalashtirish tizimlari, elektron hisob-kitoblarni to'g'ri va tezkor tashkil etish, onlayn to'lov jarayonlarini amalga oshirish, plastik kart tizimlarini boshqarish va mobil ilovalar orqali to'lov imkoniyatlarini ta'minlayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.*https://kun.uz/uz/news/2020/07/06/raqamli-iqtisodiyot-rivojlanish-trendlari-va-hususiyatlari.*

2.*https://www.ipotekabank.uz/uz/news/news241122*

3.https://davrbank.uz/uz/news/tsifrovizatsiya..